

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ISH REJASI*

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Boshqarma markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan 2025-yil 1-yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	iyul-avgust	Z.Bozorov, boshqarma tarkibiy bo'limlari rahbarlari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari	Adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxoro viloyat adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlari to'g'risida"gi Nizomga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	1
2.	Otaliqqa olingan maktablarda mavjud muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilayotganligini, huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiya, milliy vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazib borilayotganligini tahlil qilish va muvofiqlashtirish. Amalga oshirilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	iyul-dekabr	Inson resurslari sho'basi, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Otaliqqa olingan yoshlar bilan tizimli ishlash jarayonini yanada jadallashtirish va huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiya, milliy vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazib borish.	Otaliqqa olingan yoshlar bilan har bir mas'ulning o'z vaqtida va belgilangan reja asosida faoliyat yuritishi, yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni namunali darajaga ko'tarish.	4
3.	Boshqarma va uning tizimidagi xodimlar ish faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilib borish va ularni rag'batlantirish yuzasidan doimiy ravishda takliflar kiritib borish	iyul-dekabr	Inson resurslari sho'basi	Boshqarma va uning tizimidagi idoralarda samarali faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni aniqlash va ularni rag'batlantirib borish ularni ishchanligini oshiradi.	Samarali faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni rag'batlantirib borish ularni ishchanligiga ijobiy ta'sir qiladi.	4
4.	Hududlardagi yoshlar bo'yicha biriktirilgan mas'ullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda tahlil qilish.	Har oy	Inson resurslari sho'basi	Aksariyat hollarda hududlardagi yoshlar bo'yicha ishlaydigan mas'ullarning hisobotlarni o'z vaqtida umumlashtirmayotganligi, yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarning	Hududlardagi yoshlar bilan ishlaydigan mas'ullarning har oyning oxirgi juma kunida taqdim etiladigan oylik hisobotining o'z vaqtida taqdim qilinishi va muhokama qilib borilishi	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.	avgust-dekabr		natijasini ko'rsatib berilmayotganligiga sabab bo'lmoqda.	natijasi,yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarining ijobiy natijasini ko'rsatish.	
5.	Viloyat adliya boshqarmasi ma'muriy binosini foydalanishga qabul qilish. Buxoro tuman Davlat xizmatlari markazi yangi binosining qurilish ishlarini yakunlash bo'yicha barcha tegishli ishlarni amalga oshirish. Boshqarma balansidagi ta'mirtalab xizmat uylarini ta'mirlash.	iyul-avgust dekabr avgust-sentabr	I.Sayfiyev Sh.Yadgarov	Fuqarolarga qulay va sifatli xizmat ko'rsatilishini ta'minlash. .	Tizimdagi barcha xodimlarni qulay va barcha sharoitlarga ega zamonaviy binolarda faoliyat yuritishini ta'minlash	1
6.	Tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar bilan korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha profilaktik suhbatlar va targ'ibotlar o'tkazib borish.	iyul-dekabr	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho'bas	Kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish hamda jinoyatchilik va korrupsiya holatlarini oldini olish.	Xodimlarni mehnat samaradorligini va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish.	2
7.	Tuman (shahar) adliya bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish yuzasidan birlashtirilgan boshqarma markaziy apparati mas'ul xodimlari amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftada bir marotaba hisobot axborotini kiritish.	iyul-dekabr	Boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlari	Hududiy adliya bo'limlari ishlarning to'g'ri tashkillashtirilishiga erishish.	Hududiy adliya bo'limlari ishlarning to'g'ri tashkillashtirilishiga erishiladi.	1
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan adliya bo'limi rahbarlariga birlashtirilgan oilalar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish. Natijasi yuzasidan har hafta rahbariyatga axborot berish	iyul-dekabr	S.Baqoyev	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini tashkil qilish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini sifatli ta'minlash.	1

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
9.	Boshqarma markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan 2025-yilning III choragi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	oktabr- noyabr	Z.Bozorov, boshqarma tarkibiy bo'limlari rahbarlari tuman(shahar) adliya bo'limlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at Majlisi har chorakda o'tkazilib, unda boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	1
10.	Quyosh panellari o'rnatish imkoniyati mavjud balansdagi binolarga o'rnatish choralari ko'rish. Natijasi yuzassidan Adliya vazirligiga axborot berish.	avgust- sentabr	I.Sayfiyev, Sh.Yadgarov,	Kuz-qish mavsumida elektr energiyasi iste'moli oshishi natijasida ushbu resursga sarflanadigan mablag'lar miqdori sezilarli darajada oshadi.	Quyosh panellaridan olinadigan elektr energiyasini tarmoqqa sotish hajmini ko'paytirish orqali ushbu resursga sarflanadigan mablag'lar miqdori tejalishiga erishish.	4
11.	Huquqni qo'llash amaliyotidagi hamda mahallalarda aniqlangan tizimli huquqiy muammolarni, qonunchilik hujjatlaridagi bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Ishlab chiqilgan takliflar yuzasidan taqdimot tayyorlash va uni rahbar oldida himoya qilish.	iyul- dekabr har oyning 5- sanasiga qadar	Boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlari	Qonunchilikdagi tizimli huquqiy muammolarni aniqlash va qonunchilik hujjatlaridagi bo'shliq va ziddiyatlar bartaraf etish adliya organlari vazifalaridan hisoblanadi.	Qonunchilikdagi tizimli huquqiy muammolar, qonunchilik hujjatlaridagi bo'shliq va ziddiyatlar bartaraf etiladi.	4
II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH VA HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
12.	“Men Vatanimning yuziman” nomli targ'ibot kampaniyasini tashkil etish.	iyul- noyabr	Sh.Toyirov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	So'nggi davrda chet elda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ko'plab turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan omillar sifatida xorijiy mamlakatlarning qonunlari va madaniy qoidalarini yetarlicha bilmasligi, iqtisodiy omillar, oilaviy nazoratning zaifligi, radikallashuv va siyosiy omillarni ko'rsatishimiz mumkin.	Axloqiy, madaniy va huquqiy bilimlarni oshirish orqali xorijdagi salbiy hodisalarni kamaytirish. Turizm va mehnat migratsiyasi sohalarida milliy brendingni mustahkamlash.	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
13.	Boshqarma sho'balari va adliya bo'limlari faoliyatini yoritish yuzasidan "Adliya aralashgach", "Bir murojaat izidan" va "Qonunchilikdagi yangiliklar", "Adliya kuni" sarlavhasi ostida kundalik muammolarga huquqiy yechim topishga qaratilgan maqolalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqatish.	iyul-dekabr	Sh.Toyirov , tuman (shahar) adliya bo'limlari	Aholini adliya organlari faoliyati haqida ma'lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning Adliya organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy yordamlardan to'laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda.	Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida targ'ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish.	4
14.	Teleradiokanalar bilan hamkorlikda "Mening huquqim" va "Adliya xabarlari" rukni ostida chiqishlar tashkil qilish hamda mazkur huquqiy videoroliklarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borish.	Har oyda 1 marta	Sh.Toyirov tuman (shahar) adliya bo'limlari	Normativ-huquqiy hujjatlarni aholiga qulay hamda tushunarli tarzda yetkazishga qaratilgan videoroliklar sonini ko'paytirish va ularni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirish.	Qonunchilik hujjatlarining aholiga hayotiy misollar orqali sodda va ta'sirchan shaklda tushuntirilishiga erishish.	2
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-sonli Farmoni ijrosi doirasida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni yoritish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida "press-tur" tashkil etish.	sentabr	Sh.Toyirov	Aholini adliya organlari faoliyati haqida ma'lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning Adliya organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy yordamlardan to'laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda.	Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida targ'ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish.	
16.	"Prezident qarorlari - hayotda va nazoratda" rukni ostida tahliliy videorolik va ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.	sentabr, dekabr	S.Baqoyev	Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholiga tezkorlik bilan yetkazish.	Prezident hujjatlarining amalda ijrosi ta'minlanayotganligini aholiga ko'rsatish orqali ularda hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatga bo'lgan ishonchni oshirish.	4
17.	Oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, shuningdek, nizoli oilalarni yarashtirish, ajrimlar sonini kamaytirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.	iyul-dekabr (har oy)	A.Mubarakov tuman (shahar) FHDY bo'limlari	2025-yilning 5 oylik tahliliy natijalariga ko'ra, Buxoro viloyati bo'yicha ajrimlar soni 1 025 tani tashkil qilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 10 taga oshgan. Shu bilan birgalikda oilaviy ajrim bilan bog'liq nizoli oilalar soni 3 813 ta bo'lib, shundan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga ariza berganlar soni 1 252 nafar, FHDY bo'limlariga ariza berganlar soni 256 nafarni, mahalla	Nizoli oilalarni barvaqt aniqlash va ulardagi muammolarni bartaraf etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda ajrimlar sonining kamayishiga erishish.	

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
				fuqarolar yig'inlariga ariza berganlar soni 2 305 nafarni tashkil qilgan. Oilaviy ajrim sababli 816 nafar voyaga yetmagan farzandlar noto'liq oila farzandlariga aylangan.		
III. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
18.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "huquqiy ko'mak" aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha vazirlik rahbariyatiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	avgust	Sh.Jo'rayev tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarining qo'llanmaslik holatlari bo'yicha tegishli murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi kuchaytiriladi.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti o'rganiladi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3
19.	"O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun ijrosi yuzasidan o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma'lumotlarni va hujjatlarni Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishi ustidan doimiy nazorat qilib borish. Qonun ijrosini ta'minlashda vakolatli organlar tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish. Qonun ijrosining holati to'g'risida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va rahbarga axborot berish.	iyul-dekabr Har hafta oxirida	A.Raxmanov	"O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun bilan adliya organlariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	"O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun bilan adliya organlariga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash choralari ko'rish.	

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
20.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligining hududiy tuzilmalarida faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	avgust-sentabr	A.Raxmanov, S.Baqoyev, Sh.Jo'rayev, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo'rayev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bugungi kunda o'rmonlarning kamayib borishi va tabiiy tiklanish sur'atining pastligi, davlat o'rmon fondi yerlarida noqonuniy kesish, o'rmon xo'jaligi ko'chatzorlarining yetarli rivojlanmaslik holatlari mavjud. 2030-yilgacha 1,7 mln gektar yerda o'rmonzorlar tashkil etish bo'yicha Prezident qarori mavjud bo'lsa-da, ayrim hududlarda rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmayapti. Masalan, 2024-yilda Navoiy, Qoraqalpog'iston va Buxoro viloyatlarida rejadagi o'rmon ekish ko'rsatkichlari 40–60% atrofida bajarilgan.	O'rmon xo'jaligi agentligi faoliyatini o'rganish natijasida agentlik faoliyatidagi mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni aniqlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish o'rmon xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorat mexanizmlari kuchaytiriladi.	3
21.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati;	avgust-sentabr	A.Raxmanov, S.Baqoyev, Sh.Jo'rayev, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo'rayev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	intellektual mulk sohasi hamda huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
22.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hududiy tuzilmalarida faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	sentabr-oktabr	A.Raxmanov, S.Baqoyev, Sh.Jo'rayev, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo'rayev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan aholining sanitariya-gigiyena talablari, epidemiyaga qarshi choralar, oziq-ovqat xavfsizligi va infeksiyon kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati huquqiy jihatdan yetarli darajada barqaror va samarali emasligi kuzatilmoqda. Profilaktika va gigiyenaga oid targ'ibot materiallari eskicha, yetarli interaktivlik yo'q, sanitariya holati, epidemiologik holat, infeksiya tarqalishi bo'yicha yagona va to'liq ma'lumot bazasi mavjud emas	Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya- epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hududiy tuzilmalari faoliyatini o'rganish natijasida: sanitariya-gigiyena va jamoat salomatligi sohasida amaldagi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar bartaraf etiladi; huquqiy hujjatlardagi eskirgan yoki zamonaviy ehtiyojlarga javob bermaydigan normalarni qayta ko'rib chiqiladi; sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish hamda ma'sul organlar vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilash; jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish.	3
23.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy	oktabr	A.Raxmanov, S.Baqoyev, Sh.Jo'rayev, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo'rayev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Hududiy tuzilmalar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Hududiy tuzilmalar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi hamda huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
24.	Ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha hokimlarning qarorlarini o'rganish hamda qonunga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralari ko'rish.	noyabr	A.Raxmanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Davlat Rahbari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sport maydonchalari va bolalar o'yingohlari, uylar orasidagi yashil hududlar qurilish uchun berib yuborilayotganidan odamlar noroziligi tandiq qilingan. Shuningdek, barcha ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga biriktirib berish bo'yicha topshiriq berilganligi, biroq, Toshkent shahar hokimining 2025-yil 5-maydagi qarori bilan 9 802 ta ko'p qavatli uylarning faqatgina bino ostidagi yerlari kadastr bilan biriktirilganligi yuzasidan e'tiroz bildirilgan.	Hokimlar tomonidan ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha qonunchilikka zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish.	3
25.	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va hal etish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida "Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish" huquqiy aksiyasini o'tkazish.	noyabr	Sh.Jo'rayev, Sh.Toyirov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi Ushbu "huquqiy ko'mak" aksiyasini	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va hal etish, jamiyatda yoshlar rolini oshirish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va ularning milliy	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	Natijasi bo'yicha vazirlik rahbariyatiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			tashkil etish orqali bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi yanada kuchaytiriladi.	vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirish hisoblanadi.	
26.	Tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan "Online mahalla", "Adliya mahalla" hamda "Huquqiy mahalla" platformasiga kiritilayotgan huquqiy muammolarning asosli va haqiqatda huquqiy muammo ekanligini o'rganish yuzasidan monitoring o'tkazish.	Har oyning 25-sanasiga qadar	Sh. Jo'rayev	Adliya vazirligi tomonidan hududiy adliya organlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi (KPI) joriy qilinib, hududlarning faoliyatini har chorakda tizim orqali baholanib borish belgilangan. Biroq, ba'zi tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan hozirgi kunda ham tizimga biriktirilayotgan huquqiy muammolar tahrirtalab (asoslar yetarli ilova qilinmagan) yoxud biriktirilgan loyiha huquqiy muammo turiga kirmaydi.	Mazkur yo'nalishni monitoring qilish orqali kelib chiqqan va kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammoli holatlarni bartaraf etish hamda yuridik xizmat ko'satish samaradorligini oshirish orqali ushbu yo'nalishda bir xilda huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish.	1
27.	Viloyatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq topshiriqlar ijrosini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot kiritish	avgust	S.Baqoyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Ijro.gov.uz" tizimi orqali ayrim topshiriqlar ijrosi ta'minlanmaganligi, mablag' yetishmovchiligi hamda mas'ul ijrochilarning bu borada ishlarni to'g'ri tashkil etmaganligi aniqlandi. Shu bois, ushbu sohani tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati mavjud.	Mazkur soha bo'yicha hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlanadi.	3
IV. HUQUQIY XIZMAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA						
28.	"Advokatura to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunlar va boshqa shu sohadagi qonunosti hujjatlar ijrosini adliya boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgan quyidagi advokatlik tuzilmalarida o'rganish:		H.Tohirov	"Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustavda belgilangan faoliyatiga, qayta	Advokatlik tuzilmalar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	a) “ TUXTAYEV BAXRON BURXONOVICH ” advokatlik byurosi; b) “ DJURAYEV BAHRIDDIN BAXODIROVICH ” advokatlik byurosi; d) “ SAMADOV NOZIM BARAKAYEVICH ” advokatlik byurosi e) “ QO`SHAYEVA MUHABBAT HIKMATOVNA ” advokatlik byurosi; f) “ ADVOKAT ROZIQOV ” advokatlik byurosi; Natijasiga ko'ra taklif kiritish.	avgust sentabr oktabr noyabr dekabr		ro'yxatdan o'tish va tugatish tartibiga rioya etilishini nazorat qilishi belgilangan. Mazkur tashkilotlar faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmagan.		
29.	Qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishini quyidagi notarial idoralarining ish faoliyatida o'rganish. a) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ziyaev Otabek Ismatovich ; b) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Soibova Dilnoza Davlatovna ; d) G'ijduvon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mullaev Mexriddin Maxmudovich ; e) G'ijduvon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davlatov Zafar Fayzullayevich ; f) G'ijduvon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Akmal Nurmurotovich ; g) Peshku tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yarashev Jamshid Rustamovich . Natijasiga ko'ra taklif kiritish.	iyul avgust sentabr oktabr noyabr dekabr	H.Tohirov	Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdagi 156-son qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizomi”ning 41-bandiga ko'ra notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda kamida bir marta o'tkaziladi. Notarius ish faoliyatini dastlabki tekshirish u ish faoliyatini boshlaganidan bir yil o'tgandan so'ng amalga oshiriladi.	Notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notariat to'g'risidagi qonun hujjatlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlash.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
30.	2022-2024-yillar hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini o'rganish.	oktabr	H.Tohirov	Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlari 2019-2021-yillarda tahlil qilingan bo'lib, so'nggi uch yil mobaynida notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini o'rganish zarurati mavjud.	Notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o'rganish.	1
31.	Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ustavda belgilangan maqsadlarga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini quyidagi nodavlat notijorat tashkilotlarning ish faoliyatida o'rganish: Buxoro tumani "Imom Buxoriy" masjidi faoliyatini o'rganish; Vobkent tuman "Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy" masjidi faoliyatini o'rganish; Peshku tuman "Xo'ja Beshik" masjidi. Natijasiga ko'ra taklif kiritish.	avgust sentabr oktabr	A.Axmedov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qaroriga muvofiq ushbu tashkilotlarda oxirgi uch yil davomida o'rganish o'tkazilmagan.	Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ustavda belgilangan maqsadlarga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilinishi ta'minlanadi.	2
32.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish. Bunda: YXKM xodimlarini mahallalarga biriktirish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadigan barcha huquqiy hujjatlarning ishchi tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlash.	avgust avgust-dekabr	B.Saidov tuman (shahar) YXKM	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida alohida yurist shtat birligining mavjud emasligi natijasida ular tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar huquqiy ekspertizadan o'tkazilmay amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning qonuniyligiga erishish hamda yagona huquqni qo'llash amaliyoti shakllanishiga erishish.	2
33.	YXKMlar tomonidan huquqiy xulosalar berish jarayonini har oyda monitoring qilib, asossiz rad etish va muddat buzilishiga yo'l qo'ygan markaz xodimlariga nisbatan qat'iy choralarni ko'rib borish.	iyul-dekabr (har oyda bir marotaba)	B.Saidov	Adliya vazirining 2021-yil 19-noyabrdagi 313-son buyrug'iga asosan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi (KPI) joriy qilinib, yuridik	Mazkur yo'nalishni monitoring qilish orqali kelib chiqqan va kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammoli holatlarni bartaraf etish hamda yuridik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish orqali ushbu yo'nalishda bir	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
				xizmat ko'rsatish markazlarining faoliyatini har chorakda tizim orqali baholanib borish belgilangan. Biroq, ba'zi tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari bosh yuriskonsultlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan huquqiy hujjatlariga xulosalar berilmoqda	xilda huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish.	
V. DAVLAT XIZMATLARI SOHASIDA						
34.	Quyidagi FHDY organlarining 2024-yilning ikkinchi yarmi va 2025-yilning o'tgan davridagi faoliyatini, xususan davlat xizmatlarini ko'rsatish va huquqni qo'llash amaliyotini tekshirish. Buxoro va Qorovulbozor tuman FHDY bo'limi; Qorako'l tuman FHDY bo'limi; Jondor tumani FHDY bo'limlari; Olot tuman hamda Buxoro shahar 3-son FHDY bo'limi; Buxoro shahar 1-son FHDY bo'limi; Shofirkon tuman FHDY bo'limi; Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	iyul avgust sentabr oktabr noyabr dekabr	A.Mubarakov	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktbyardagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning 222-bandi asosan FHDY organlarining faoliyatini har yili tekshirishi lozim.	FHDY bo'limlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	3
35.	Buxoro viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davri mobaynida davlat xizmatlari ko'rsatilishi ahvolini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.	iyul- avgust	B.Djamalov tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur davlat xizmatini ko'rsatilishi yuzasidan aholi tomonidan ko'plab murojaatlar kelib tushayotganligi sababli	Davlat xizmati ko'rsatilishini tahlil qilish va qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli ta'sir choralari qo'llash.	2
36.	Kadastrlar palatasi Buxoro viloyat boshqarmasi va uning tuman (shahar) filiallari	avgust- sentabr	B.Djamalov	Bugungi kunda kadastr pasportini shakllantirish bo'yicha kelib tushgan	Kadastrlar palatasi Buxoro viloyat boshqarmasi va uning tuman (shahar)	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
	tomonidan elektron tizim orqali kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish muddatiga rioya qilinishi hamda rad qilishning qonuniyligini monitoring qilish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.		tuman (shahar) adliya bo'limlari	arizalarni ko'rib chiqishda rad etilganlar salmog'i yuqoriligicha qolmoqda va bu idoralar xodimlari xatti-harakatlaridan noroziligi haqidagi murojaatlar ko'paymoqda.	filialari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	
37.	2025-yil 1-yarim yilligida tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlari tomonidan eng ko'p ko'rsatilgan davlat xizmatlarini tahlil qilish. Tahlil natijasida markaz xodimlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash natijasi bo'yicha taklif kiritish.	avgust	A.Mubarakov	Tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi tomonidan kadastr va arxitektura sohasida eng ko'p davlat xizmatlari ko'rsatilgan va bu sohada markaz xodimlari tomonidan ayrim holatlarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishini oldini olish.	2
38.	Viloyat miqyosida tadbirkorlik subyektlari – yuridik va jismoniy shaxslarni qayta ro'yxatdan o'tkazishda muddat buzish, asossiz rad etish va ortiqcha hujjat talab etish holatlarini monitoring tartibida o'rganish hamda natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish.	noyabr	A.Mubarakov	Davlat xizmatlari markazlari orasida tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ular faoliyatini doimiy nazorat qilish lozim. Davlat xizmatlari markazlari tomonidan rad etilgan onlayn arizalar o'rganilganda ayrim holatlarda asossiz rad etish holatlari aniqlangan.	Tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonunbuzilishi holatlari oldi olinadi hamda kamayadi.	2
VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
39.	Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) bo'yicha majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasida bajarilishi yuzasidan monitoring o'tkazish hamda tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va vazirlikka kiritish.	oktabr	Sh.Jo'rayev	O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro shartnomaga 2019-yilda qo'shilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar majburiyatlar bajarilishi holati o'rganilmagan.	Xalqaro shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyatlar bajarilishini o'rganish hamda mualliflik huquqi obyektlarini internet axborot makonida himoyasini ta'minlash	4
40.	Oliy ta'lim muassasalarida intellektual mulk bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan seminar tadbirlarini o'tkazish.	sentabr	Sh.Jo'rayev Sh.Toyirov	Oliy ta'lim muassasalari tomonidan adliya boshqarmasiga intellektual mulk bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan seminar tadbirlarini o'tkazish yuzasidan taklif tushmoqda.	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning intellektual mulkka bo'lgan hurmat hissini shakllantirish hamda huquqiy bilimlarini oshirish.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho **
41.	Kontrafakt mahsulotlarining salbiy oqibatlaridan ogoh etishga chorlovchi va kontrafakt mahsulotlar haqida yaxlit tushuncha hosil qilishga xizmat qiluvchi “Kontrafakt mahsulotlar katalogi” ni bozorlar va yirik savdo majmualari, savdo do'konlarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga tarqatish orqali tushuntirish ishlarini olib borish.	avgust-dekabr	Sh.Jo'rayev	Hozirgi kunda bozorlarda kontrafakt mahsulotlar uchrayotganligi va tadbirkorlik subyektlarining original va kontrafakt mahsulotlarni bir biridan farqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalari etarli darajada shakllanmaganligi.	Tadbirkorlik subyektlarida original va kontrafakt mahsulotlarni bir biridan farqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi, shu orqali kontrafakt mahsulotlari tarqalishining oldi olinadi.	3
42.	Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi va himoyasi sohasida manfaatdor shaxslarga uslubiy yordam ko'rsatish.	avgust-dekabr	Sh.Jo'rayev	Keyingi vaqtlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'z tovar belgilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha talab ortib borayotganligi, biroq ularning ip.adliya.uz axborot tizimidan foydalanish bo'yicha bilimlari etarli daraja shakllanmaganligi va ularga amaliy yordam zarurati mavjud.	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'z tovar belgilarini vaqtida davlat ro'yxatidan o'tkazishga erishiladi.	2
43.	Viloyat hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish. Natijasi yuzasidan Adliya vazirligiga axborot kiritish.	sentabr	Sh.Jo'rayev	Respublikamizdagi yirik savdo majmualarida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari uchramoqda. Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni “Kontrafaktsiz hudud”ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi.	Yirik savdo majmualarini kontrafaktsiz hududga aylantirish.	3

Izoh:

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar adliya boshqarmasining mavjud bino, moliyaviy mablag'lari va moddiy-texnik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (*raqami*) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (*amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini*) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.